



## OLIV TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM SIFATI MENEJMENTI

*Xodjamuratova Gulbaxar Yuldashevna –  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
Menejment va marketing kafedrasida dotsenti*

[doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss3/a62](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss3/a62)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mamlakatimizda ta'lim sifatining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni, ta'limda sifat menejmentini qo'llash istiqbollari, bu borada xorijiy olimlarning qarashlari, ilmiy-nazariy xulosalari, fikrlari tahlil qilindi. Oliy ta'limda sifat menejmentini qo'llashning ijobiy taraflari keltirib o'tildi. Sifat menejmentini qo'llashdagi muammolar o'rganilib, ilmiy asoslangan xulosa va takliflar berildi.

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lim, sifat menejmenti, iqtisodiyot, nazorat, tashkilotshirish, kadrlar tayyorlash, modellar, takomillashtirish, taraqqiyot, islohot, innovatsiya.

## УПРАВЛЕНИЕ КАЧЕСТВОМ ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

*Ходжамуратова Гульбахар Юлдашевна –  
Доцент кафедры “Менеджмент и маркетинг”  
Ташкентского государственного экономического университета*

**Аннотация.** В данной статье проанализировано место качества образования в нашей стране в экономике страны, перспективы применения менеджмента качества в образовании, взгляды, научно-теоретические выводы, мнения зарубежных ученых по этому вопросу. Приведены положительные стороны применения менеджмента качества в высшем образовании. Были изучены проблемы применения менеджмента качества, даны научно обоснованные выводы и предложения.

**Ключевые слова:** высшее образование, менеджмент качества, экономика, контроль, организация, обучение персонала, модели, совершенствование, прогресс, реформирование, инновации.

## QUALITY OF EDUCATION MANAGEMENT IN THE DEVELOPMENT OF HIGHER EDUCATION

*Khodjamuratova Gulbakhar Yuldashevna –  
Associate professor of the Department of Management  
and marketing, Tashkent State University of Economics*

**Annotation.** In this article, the role of the quality of education in our country in the economy of the country, the prospects for the application of Quality Management in education, the views of foreign scientists in this regard, scientific and theoretical conclusions, opinions were analyzed. Positive aspects of the use of Quality Management in higher education have been cited. Problems in the application of quality management were studied and scientifically based conclusions and suggestions were made.

**Keywords:** higher education, quality management, economics, control, organization, personnel training, models, improvement, progress, reform, innovation.

**Kirish.** Hozirda jahon miqyosida oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash sifatini oshirishning mintaqaviy jihatlarini e'tiborga olgan holda yanada takomillashtirish borasida keng ko'lamdagi ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Bu borada turli shart-sharoitlar bilan tafovutlanuvchi mintaqalarda oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashning innovatsion modellarini yaratish, iqtisodiyotning yuqori malakali mutaxassislarga nisbatan tez o'zgarib boruvchi ehtiyojini kadrlar tayyorlashning mavjud imkoniyatlari hamda salohiyati bilan muvofiqlashtirish muammolari tadqiqiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'kidlash kerakki, mintaqalarda kadrlar tayyorlashning sifati va salohiyatining innovatsion-investitsion mexanizmlarini modellashtirish hamda prognozlash jarayonlarini yanada takomillashtirish bu boradagi muhim ilmiy tendensiyalardan hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev bu borada mamlakatda ta'lim tizimini takomillashtirish,

sifatli ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, ta'lim sifati menejmenti bo'yicha "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir" [1] deya keltirib o'tganlar.

Jahonning rivojlangan davlatlarida, xususan, AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Janubiy Koreyaning rivojlanish garovi bo'lib inson omilini kuchaytirishga qaratilgan investitsiyalash, ya'ni inson salohiyati taraqqiyoti, xususan, aholi ta'lim darajasining oshishi va yosh kadrlarning professional tayyorgarligi bilan belgilanadi. Mamlakat va mintaqalarning ustuvor iqtisodiy o'sishini ta'minlashning yo'li zamonaviy bosqichda aynan ta'lim sifati menejmentini yanada takomillashtirish bilan amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, kadrlar tayyorlash mazmunini zamonaviy talablar asosida tubdan qayta ko'rib chiqish, raqobatbardosh oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash hamda sohani jahon standartlari daraja-

sida rivojlantirishda oliy ta'lim tizimida ta'lim sifati menejmenti faoliyatni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada asosiy bilim sohalarini bo'yicha elektron ta'lim resurslari milliy tizimini yaratish, jahonning ta'lim resurslariga kirish va bu infratuzilmani takomillashtirish, o'quv jarayonida jahonning va milliy elektron ta'lim resurslaridan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali foydalanish, o'quv yurtlarini moddiy-texnika bazasini va tarmoqli infratuzilmani rivojlantirish muammolari oliy ta'lim tizimida dolzarbdir.

Jahon amaliyotida muayyan mutaxassislar kasbiy kompetentligini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda ta'lim boshqaruvi natijaviyligiga alohida e'tibor berilgan bo'lib, bunda asosiy urg'u ta'lim sifati menejmentiga qaratilmoqda. Bu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar oliy ta'lim tizimini boshqarishning nazariy-metodologik asoslari, sifati menejmenti va ta'lim sifati monitorinigi zamonaviy talablar asosida takomillashtirish hamda ta'lim sifati va samaradorligi uyg'unligini ilmiy jihatdan asoslovchi takliflarni ishlab chiqish, oliy ta'lim sifati baholash tizimini takomillashtirish masalalariga qaratilgan. Respublikamizda kadrlar tayyorlash sohasida amalga oshirilayotgan uzluksiz ta'lim tizimidagi islohotlar ta'lim jarayonlarini tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishni, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy talablariga mos keladigan, demokratik va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan ta'lim sifati boshqaruvini shakllantirishni taqozo etmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.** Ta'lim menejmentining funksiyalarini bajarish va maqsadga erishish metodlari L.I.Fishman, V.S.Bezrukova, V.A.Kalney, T.D.Makarovning ishlarida alohida ko'rsatib o'tilgan [2]. Xorijiy olimlardan B.Burkhalter, B.Crumrine, J.Hackman, G.Kanji va boshqalarning tadqiqotlarida oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati boshqarish, ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash borasida yalpi sifati menejmenti tamoyillari va texnologiyalarini joriy etish masalalari o'rganilgan [3].

Ushbu mavzuni tadqiq etish yuzasidan xorijiy va mamlakatimiz olimlarining ta'lim tizimini takomillashtirish masalalari, innovatsion menejmentning nazariy va metodologik asoslari, shuningdek, ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini qo'llash usullariga bag'ishlangan ilmiy asarlar mavjud. Innovatsion faoliyat sohasiga, ta'lim berishda axborot texnologiyalariga aloqador dolzarb muammolarning yechimini izlashga o'z vaqtida F.I.Peregudov [4] munosib hissa qo'shdi. Maorif sohasidagi innovatsion jarayonlarning kechishiga oid turli xil muammolarni ilmiy jihatdan tadqiq qilish, Yaponiyaning oliy ta'lim tizimini boshqarish muammolarini tadqiq qilish N.P.Dronishines [5] ilmiy tadqiqotlarida aks etgan.

Ta'lim va ta'lim sifati tadqiq qilgan M.M.Potashnik, P.I.Tretyakov, T.I.Shamovanning fikricha, ta'lim boshqaruvi fanining nazariy-metodologik asosini tizimli, funksional, sinergetik, faoliyatli, vaziyatli, refleksiv, milliy hududiy va natijaga asoslangan yondashuvlar tashkil etadi [6]. Mazkur yondashuvlar ta'limda samarali boshqaruv faoliyatini amalga oshirish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

N.Shmireva, M.Gubanova va Z.Kresan ta'lim sifati menejmenti – o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga doir ehtiyojlarni qondirishni ta'minlovchi ta'lim xizmatlari iste'mollilik xususiyatlarining majmuasi, deb hisoblaydi [7].

A.Voronin tomonidan ta'lim sifati menejmenti – jamiyatda ta'lim jarayonining holati va natijasini, shaxsning fuqarolik, hayotiy va kasbiy kompetensiyalarining rivojlanishi hamda shakllanish ehtiyojlari va umidlariga muvofiqligini aniqlovchi kategoriya tarzida talqin qilingan [8].

Y.Dombrovskaya ta'lim sifati menejmenti – ta'limning Davlat ta'lim standartlari, tegishli ta'lim dasturining o'quv-dasturiy hujjatlari talablariga muvofiqligi, deb e'tirof etadi. Adabiyotlar tahlili umumlashgan ma'noda ta'lim sifati menejmentiga inson ehtiyoji hamda jamiyat va davlat manfaatlarini qondiruvchi xususiyatlar yig'indisi sifatida qaralganligini ko'rsatadi [9].

D.N.Raximova inson resurslarini boshqarish, kadrlarni tayyorlash, oliy ta'lim tizimida sifati menejmentini olib borish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalalariga personalni boshqarishda xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanish kerakligini ko'rsatadi [10].

R.X.Jo'rayev va S.T.Turg'unovning fikricha, ta'lim menejmentining asosiy maqsadi ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish hamda samarali boshqarishni ta'minlashdan iborat [11].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot ishimizni yoritishda taqqoslash, analiz, iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tahlillarda mamlakatimizda oliy ta'limning hozirgi holati va unda ta'lim sifati menejmentini qo'llashdagi muammolar va sohaga oid boshqa bir qator muammolar aniqlandi. Ma'lumotlarni analitik tahlil usuli, ya'ni oliy ta'limda sifati menejmentining o'rni, qo'llanilish sohasi bo'yicha tahlillar amalga oshirilgan va kengroq qilib yoritib bepishga harakat qilindi. Natijada muammolar aniqlanib, muammolarga tegishli ilmiy asoslangan takliflar berildi va mushohada qilish asosida ilmiy xulosalarga kelindi. Tadqiqot obyekti sifatida oliy ta'lim muassasalari o'rganildi.


**Tahlil va natijalar.** Tahlil qilingan tadqiqotlar ta'lim sifati boshqaruvi yo'nalishida turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'rsatdi va ularni izohlab o'tish maqsadga muvofiq. Ta'lim sohasining barqaror rivojlanishi mamlakatimizning jadal ijtimoiy-

iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashning garovidir. Unga erishishda oliy ta'lim tizimida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish asosida ta'lim muassasalarining samarali faoliyatini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiya qilish davrida ishlab chiqarish omillaridan oqilona foydalanishni ta'minlash yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishishning yetakchi omili hisoblanadi. Ma'lumki, inson omili ishlab chiqarish resurslari orasida asosiy bo'lib hisoblanadi. Chunki boshqa barcha omillar, uning bevosita ta'siri va faol ishtirokida harakat qiladi.

Sifat menejmenti asoschisi V.Shuxart ta'lim sifatini har bir qismini nazorat qilishga asoslangan yondashuvni texnologik jarayonlarning bir me'yorda ishlashini ta'minlashga qaratilgan metodika bilan almashtirishni taklif qilgan [12]. Keyingi ta'lim sifati

menejmenti mutaxassisi A.Feygenbaum sifatni ishlab chiqish, qo'llab-quvvatlash va yaxshilash bosqichlaridan iborat bo'lgan Sifatning Yalpi Nazorati (Total Quality Control) tushunchasini kiritdi [13]. Uning ta'lim sifatini doimiy yaxshilab borish zarurligi to'g'risidagi g'oyasi E.Dyoming tomonidan rivojlantirilib, ishlab chiqarish amaliyotiga PDCA (Plan-Do-Check-Act), ya'ni RBNH (Rejalashtirish-Bajarish-Nazorat-Harakat) – "Shuxart-Deming metodi" yoki "Dyoming sikli" nomi bilan joriy etildi [14].

Ta'limda sifat menejmentini tashkil etish va samarali boshqarishda Dyoming siklidan ham foydalanish mumkin. U bir qator bosqichlardan o'tkazilib, amalga oshiriladi. Dyoming siklini tushunish ta'lim sifatini boshqarishning o'zi bilan chegaralanib qolmaydi, u barcha boshqaruv va xo'jalik faoliyatlari bog'liq bo'lib, uni muassasa faoliyatining har bir jabhasida keng qo'llasa bo'ladi.



1-rasm. Ta'limda sifat menejmentini tashkil etish va samarali boshqarishda Dyoming sikli [14]

Ta'lim va xodimlarni kasbiy tayyorlash sifati muammolariga tizimli yondashish zarur. Omillar butun majmuyini ular bog'liqligi va aloqadorligida, bir zanjirning halqalari sifatida boshqarish zarur. Mazkur zanjirdan biror halqa (omil) yoki halqalarning (omillar) tushib qolishi ta'lim sifatini boshqarish tizimida uzilish sodir bo'lishiga olib keladi. Mazkur tizimdagi uzilishlar biror omil yo'l qo'yilgan chegaradan chiqqanida ham sodir bo'ladi. Shuning uchun omillar majmuyini bozor iqtisodiyoti, korxonalar, jamiyat va davlat belgilaydigan talab chegarasida tutib turish ta'lim sifatini boshqarish tizimining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Standartlar tavsiyalari bo'yicha yaratilgan ta'lim sifatini boshqarish tizimi quyidagi tamoyillarga asoslaniladi [15]:

- iste'molchilarga mo'ljallanganligi;
- ta'lim muassasasi rahbariyatining yetakchiligi;
- ta'lim muassasasi xodimlarini jalb qilishning keng qamrovliligi;
- oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv qarorlarining aniq dalillar asosida qabul qilinishi;
- tizimli yondashuv asosidagi boshqaruv;
- ta'lim sifatini doimiy yaxshilash;
- subyektlar manfaatdorligi;
- boshqaruvga jarayon sifatida yondashish va hokazo.

## Sifatni nazorat qilish va boshqaruv tizimining asosiy vazifalari [15]

<b>Ta'lim berish vazifasi</b>	o'zlashtirishni nazorat qilish asosida bilim, ko'nikma va malakalar tekshiriladi, chuqurlashtiriladi va takomillashtiriladi, savodxonlik darajasi oshiriladi, aqliy mehnat madaniyati takomillashtiriladi, ta'lim oluvchining mustaqilligi rag'batlantiriladi
<b>Rivojlantiruvchi vazifasi</b>	nazorat ta'sirida shaxsning diqqat, xotira, tafakkur kabi psixologik jarayonlari va xususiyatlari takomillashadi, bilish faolligi rag'batlantiriladi. Bu vazifa o'quvchilarga tavsiya qilinadigan nazorat topshiriqlari (savollari) o'quvchidan faqat o'qilganni aytib berishni emas, balki izohlarni, isbotlarni, asoslashlarni talab qilgan vaziyatdagina amalga oshirilishi, samara berishi mumkin
<b>Tarbiyaviy vazifasi</b>	o'zlashtirishni nazorat qilishdagi baholash ta'lim oluvchi faoliyatining natijalari haqidagi jamoa fikrini aks ettiradi. Bu baho mas'uliyat hissini, o'zining o'quv burchini anglashni tarbiyalashga yordam beradi, irodani, intizomni, qat'iyatlilikni rivojlantiradi
<b>Boshqaruvchilik vazifasi</b>	o'zlashtirishni nazorat qilish muloqotda bo'luvchilarga, ayniqsa, o'qituvchiga muvaffaqiyatlar darajasini ko'rsatuvchi va ularni keyinchalik o'zlashtirishni yaxshilash choralarini ko'rishga yo'naltiruvchi uzluksiz amalga oshiriladigan teskari aloqa sifatida namoyon bo'ladi
<b>Nazorat qilish va baholash vazifasi</b>	ta'lim oluvchining o'quv faoliyati borishi va natijalarini kuzatishga imkon beradi. Nazorat tizimining bu vazifaga o'qituvchi nazorati, ta'lim oluvchilarning o'zaro nazorati va o'z-o'zini nazorat qilish kiradi. O'z-o'zini nazorat qilishning ahamiyatini psixologlar olib borgan ishlar ishonarli tarzda isbotlab bergan. Ularning ta'kidlashicha, agar inson o'z xato va kamchiliklarini ko'rmasa, o'z faoliyati natijalarini tanqidiy baholay olmaydi va faoliyat cheksiz takrorlangani bilan, baribir bu faoliyat natijalari takomillashmaydi
<b>Tashkillashtirish vazifasi</b>	tashkillashtirilgan tarzda tizimli o'tkaziladigan nazorat ta'lim oluvchi ishining uyushqoqlik bilan olib borilishini ta'minlaydi, oliy ta'lim muassasasi talablariga yo'naltiradi, mustaqil ishlashning samarali tartibini ishlab chiqishga yordam beradi

Aksariyat xorijiy davlatlarda ta'lim sifatini baholash ikki tarkibiy qismdan, ya'ni ichki (o'zini o'zi baholash) va tashqi baholashdan iborat bo'lishi lozimligi, shuningdek, mazkur tashkil etuvchilarning aniq mexanizmlari har xil bo'lishi mumkinligi tan olinadi. Sifatni tashqi baholash tizimi ko'proq standartlar va iqtisodiy samaradorlik bilan, ichki baholash tizimi esa raqobatbardoshlik va rivojlantirishga yo'naltirilgan takomillashtirishlar bilan aloqadorlikda tushuniladi. Dunyoda mavjud ta'lim sifatini baholash tizimlarini ham ularda tashqi yoki ichki baholashga urg'u berilishiga qarab, shartli ravishda, ikki modelga bo'lish mumkin.

Demak, ta'lim sifati menejmentining nazorati ichki va tashqi baholashdan iborat bo'lib, mazkur baholashlarning mexanizmlari turlicha bo'lishi va ta'lim sifatini ta'minlashda ichki baholash hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Bugungi kunda jahon oliy ta'lim tizimida 10 dan ortiq ta'lim sifati menejmenti modellari qo'llanilib kelinmoqda va bu modellar oliy ta'lim muassasalarining sifat bo'yicha talab qilingan natijalariga erishishiga qaratilgan faoliyat jarayonlari va jihatlariga nisbatan belgilangan talablar va ko'rsatkichlar, tamoyillar, metodlar hamda ushbu jarayonlarning takomillashuv darajasini belgilab beruvchi mezonlar, ularni baholash yo'llari yig'indisi, deb tushuniladi.

Sifatni baholashga asoslangan modellar tizimli ravishda o'z-o'zini baholash, SWOT-tahlili vositasida OTM faoliyatining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash va kamchiliklarni bartaraf etishni nazarda tutadi. Ta'lim dasturini amalga oshirish samaradorligi ta'lim berish metodi, o'qitish sifatini baholash mexanizmining mavjudligi va samaradorligi kabi ko'rsatkichlar orqali baholanadi. Ta'lim dasturla-

rini ichki baholash natijasida ta'lim muassasasi tomonidan o'qitishning an'anaviy va interfaol shakllari, ularning o'zaro nisbati, ta'lim oluvchilarning yakuniy natijalari, o'qitish metodlari va ularning qabul qilinishi haqidagi ma'lumotlar shakllantiriladi.

Mazkur ma'lumotlarni e'tiborga olgan holda ta'lim dasturini o'qitish metodlari, talabalar bilimini baholash mexanizmlarining mavjudligi va samaradorligi hamda o'qitish sifati nazorati mexanizmlari kabi ko'rsatkichlar asosida tashqi baholash amalga oshiriladi. Shuningdek, ekspertlar ta'lim dasturini tashqi baholash jarayonida uning sifatini baholash mezonlariga (yuqori, o'rtacha, past darajada) mosligini aniqlaydilar va dasturning o'quv-uslubiy ta'minoti, zarur o'quv adabiyotlarining mavjudligi va miqdorining yetarilishi, o'quv jarayonining moddiy-texnika ta'minoti kabi asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha baholashni amalga oshiradi.

Sifat menejmentining yuqoridagi yo'nalishlaridan birini tanlashda ta'lim muassasasining quyidagi sharoitlari e'tiborga olinishi lozim:

- sifat menejmentining tashkil etilganlik darajasi;
- kadrlar ta'minoti;
- ta'lim jarayonining holati;
- o'quv jarayonining hujjatlar bilan ta'minlanganlik darajasi;
- moliyaviy ta'minotning mavjudligi va hokazo.

Ta'lim tizimida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri ta'lim muassasalarining sifatini oshirishdan iborat. Ta'lim sifati uni iste'molchiga ko'rsatuvchi ta'lim muassasalari faoliyatini samarali tashkil etishga bog'liqdir.



Ayni paytda ta'lim sifatini oshirish yo'li bilan uning raqobatbardoshligi ta'minlanadi. Ta'lim tizimining raqobatbardoshligi ta'limning talablarga javob berish qobiliyati va ularning bozorda sotilishidir. Ushbu jarayonlar asosida ma'lum tavsifdagi ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlarini beruvchi xususiyatlar yotadi. Ta'limning raqobatbardoshligi ularni boshqa shu turdagi ta'lim muassasalariga solishtirish asosida aniqlanadi. Bu, asosan, quyidagi ikki parametr orqali amalga oshiriladi: ta'limning aniq ehtiyojga mosligi va bu ehtiyojni qondirish xarajatlari.

Ta'lim sifatini yanada oshirish uchun quyidagi yo'nalishlarga ahamiyat berish zarur [15]:

- o'quv auditoriyalarini zamonaviy o'qitish jihozlari bilan to'liq ta'minlashga erishish;
- elektron kutubxonadagi o'rinlar sonini ko'paytirish;
- talabalarning mustaqil ta'lim olishlari uchun uslubiy ko'rsatmalar va auditoriyadan tashqari vaqtlarini samarali o'tkazishga erishish;
- darslarning to'liq yangi pedagogik texnologiyalar va texnikaviy jihozlar asosida o'tilishini ta'minlash.

Ta'lim tizimining raqobatbardosh bo'lishi, ya'ni talabni qondirishi uchun ularning sifati iste'molchiga mos kelishi lozim. Shunday qilib, ta'lim tizimi sifati ularning bozorda raqobatbardoshligini ta'minlovchi yetakchi omildir. Hozirgi davrda mamlakatimiz ta'lim tizimi iqtisodiy munosabatlarini takomillashtirishning zarurligi fan-texnika taraqqiyo-

ti, iqtisodiy globallashuv va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash bilan bog'liqdir. Shu bilan birga, ta'lim majmuasini ustuvor rivojlantirish iqtisodiy o'sishining yuqori sur'atlariga erishish asosida aholi farovonligini oshirishning zarur sharti hisoblanadi.

**Xulosa va takliflar.** Ta'limga sifat menejmentini tatbiq etish natijasida quyidagi samaralarga erishish mumkin:

- o'quv jarayonidagi boshqaruv tuzilmasi modernizatsiyalashgan ko'rinishga yaqinlashadi;
- o'quv jarayonida yuritiladigan hujjatlar soddalashadi va optimallasadi;
- yetishtirilayotgan kadrlar o'rtasida sog'lom raqobat muhiti takomillashadi;
- yetishtirilayotgan kadrlarning jahon miqyosidagi raqobatbardoshligi ortadi;
- ishlab chiqarish va ta'lim o'rtasidagi integratsiya kuchayadi;
- ilmiy tadqiqot natijalarining samaradorligi ortadi.

Hozirgi davrda milliy, mintaqaviy va jahon miqyosida ta'lim tizimi shakllanib bormoqda. Bu holat ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha ikki paradigma o'rtasidagi ziddiyatning kuchayishiga olib kelmoqda. Bular oliy ta'limni tashkil etish va rivojlantirishga akademik va bozor nuqtayi nazaridan yondashuvlardir. Ushbu ziddiyatning yechimi ikki yondashuvning sintezidan foydalanish, ular o'rtasidagi oqilona nisbatni topish orqali hal etilishi mumkin.

#### **Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil uchun Murojaatnomasi. [www.prezident.uz](http://www.prezident.uz) saytidan.
2. Фишман Л.И. Повышение качества образовательных услуг на основе делегирования обратных связей (теория и методология). – Самара, 2019. – 400 с.: ил. РГБ ОД, 71 11-8/48.
3. Тоштемурова С.Т., Мухаммадиев Л.Ф. Таълим сифати бошқаруви ва бу йўналишдаги халқаро моделларнинг ўзига хос хусусиятлари. // *Academic research in educational sciences*. 2021. № 3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/talim-sifati-bosh-aruvi-va-bu-y-nalishdagi-hal-aro-modellarning-ziga-hos-xususiyatlari>
4. Переудов Л.В., Саидов М.Х. Олий таълим менежменти ва иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. – Т.: Молия, 2012. – 184 б.
5. Дронишинец Н.П. Проблемы управления системой высшего образования в Японии. // *Университетское управление*. 2012. 1. С. 70-79.
6. Управление развитием школы: пособие для руководителей образовательных учреждений. / Под ред. М.М.Поташника, В.С.Лазарева. – М.: Новая школа, 2015.
7. Шмырева Н.А., Панчук Н.С. Портфолио как средство обучения студентов на занятиях физической культурой. // *Вестник БГУ*. 2021. № 1.
8. Андреева И.С. 2015. 03. 031. Воронин А. А. Миф техники. – М.: Наука, 2014. – 199 с. // *Социальные и гуманитарные науки. Отечественная и зарубежная литература. Сер. 3, Философия: Реферативный журнал*. 2015.
9. Brodovskaya E.V., Dombrovskaya A.Y., Karzubov D.N. & Sinyakov A.V. Developing methodology for "smart" search for political process markers in social media. *Monitoring of Public Opinion: Economic and Social Changes*, 2017, 5, 79-104. <https://doi.org/10.14515/monitoring.2017.5.06>
10. Рахимова Д.Н., Касимова Н. Принципы управления персоналом в Японии. *Потенциал современной науки*. 2016. № 4 (21). С. 111-117.
11. <http://portal.guldu.uz/download-edfiles-20498.doc>
12. Пекун В.В. Система менеджмента качества в животноводстве. // *Экономика и банки*. 2015. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sistema-menedzhmenta-kachestva-v-zhivotnovodstve>
13. Михайлова Н.В., Фёдорова Л.А. Концепции У.Э. Деминга – «Опорные точки» современной системы Всеобщего управления на основе качества. // *Век качества*. 2012. № 5-6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kontseptsii-u-e-deminga-opornye-tochki-sovremennoy-sistemy-vseobshchego-upravleniya-na-osnove-kachestva> (дата обращения: 03.05.2023).
14. <https://soap-sale.ru/uz/instrukcii/model-shuharta-deminga-idei-deminga-i-ital-primer-cikla-deminga-v-it-teoriya/>
15. Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan takomillashtirildi.